

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

AXMADJONOV DONIYOR KARIMJON O‘G‘LI

**HARBIY XIZMATCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Axmadjonov Doniyor Karimjon o‘g‘li

Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish.....3

Ахмаджонов Дониёр Каримжон угли

Совершенствование физической подготовки военнослужащих.....29

Akhmadjonov Doniyor Karimjon ugli

Improvement of the physical training of military personnel.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

AXMADJONOV DONIYOR KARIMJON O‘G‘LI

**HARBIY XIZMATCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.Phd/Ped2323 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www. ZiyoNet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qirg‘izboyev Ma’rufjon Mo‘ydinovich**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Kochkarov Atabek Axmatvayevich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Abduazimov Sabirjon Utkurovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “E-bino” 3-qavat 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “__” _____ da _____ raqamli reestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d (DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, p.f.b.f.d (PhD), professor

A.N.Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘ngi yillarda harbiy siyosiy vaziyatlarning keskin o‘zgarib borayotganligi har bir harbiy xizmatchining yuqori vatanparvarlik, maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Bu esa harbiy xizmatchilarning kasbiy-amaliy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan vosita va usullarni foydalanishni taqozo etmoqda. Xususan, jismoniy tayyorgarlik – jangovor tayyorgarlikning asosi sifatida jangovor vazifalarni bajarish uchun doimo jismonan shay turishni talab etmoqda. So‘nggi yillarda butun dunyoda yoshlar orasida qo‘l va oyoq zarbalari hamda kurash usullarini o‘z texnik arsenaliga kiritgan yakkakurash sport turlari ommalashmoqda. Bular sirasiga qo‘l jangi, harbiy qo‘l jangi, universal jang, ushu-sanda, jangovar sambo, pankration, karate, MMA (aralash yakkakurash) vositalaridan harbiy xizmatchilarni jangovor tayyorgarligini oshirishda muhim hisoblanadi. Yakkakurash sport turlarini harbiy xizmat faoliyatida ommalashtirish, ushbu sport turlariga harbiy xizmatchilarni keng jalb etish va ularning jangovar mahoratini oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda yakkakurash sport turlari bo‘yicha maxsus jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirish uchun ularni aniqlash, o‘quv-mashg‘ulot va musobaqa jarayonlari samaradorligini oshirishga e‘tibor qaratilmoqda. Harbiy xizmat bilan bilan bir vaqtda sportning yakkakurash turlari bilan mashg‘ulot o‘tkazishda murabbiylar mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish, ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida vosita va usullarni rejalashtirish, yuklama me‘yorlarini ishlab chiqish, oliy ta‘lim muassasasi kursantlarini jismoniy tayyorgarligini oshirish yuzasidan bir qancha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, bugungi kunda harbiy xizmatchilarning jangovor, kasbiy-jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy sifatlarni takomillashtirish usullarining yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi yakkakurash vositalari orqali harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik va sadoqat bilan xizmat qilish tuyg‘usini kamol toptirish, ularda jismoniy tayyorgarlik va yakkakurash sport turlari orqali musobaqa faoliyatida maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini belgilaydigan maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda. “Yakkakurash turlarida raqobatning doimiy o‘sib borishi sport turining o‘ziga xos xususiyatlariga to‘liq javob beradigan yangi sport mashg‘ulot vositalari va usullarini ishlab chiqish”¹ vazifalari belgilab berilgan. Sport mashg‘ulotlarining turli bosqichlarida an’anaviy vosita va usullarini qo‘llash har doim ham harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishning samarali usuli hisoblanib, an’anaviy yakkakurashlarda qo‘llaniladigan vosita va usullarni yakkakurash mashg‘ulotlarida qo‘llash kutilgan natijani bera olmaydi. Shu bilan birga,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi PQ-352-son “Chet-el davlatlari harbiy kadrlarini O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida tayyorlash va o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

yakkakurash turlari bo'yicha harbiy xizmatchilarni mashg'ulot jarayonlarini ilmiy-uslubiy asoslash, maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun zarur vosita va usullarni tanlashda bir qator muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 13-sentabrdagi PF-159-son "Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchi va xodimlar oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", 2023 yil 13-martdagi PF-34-son "Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi PQ-2738-son "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2023 yildagi 03-avgustdagi PQ-259-son "Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" qarorlari hamda mazkur sohaga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlar doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jismoniy tayyorgarlik o'z vazifalarini jismoniy tayyorgarlik jarayonida eng to'liq amalga oshirilishi, harbiy-amaliy faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan maqsadli, nazorat qilinadigan jismoniy takomillashtirish jarayoni isloh qilish yuzasidan A.M.Kambarov, A.I.Abdiyev, R.A.Xamrokulov, Sh.X.Xankeldiyev, F.A. Kerimov, A.A.Kochkarov, J.A.Akramov, O.Xabdlimov, A.T.Xasanov, R.A.Matchanov, A.G.Mirzakulov² kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

² Камбаров А.М. Военная профессиональная подготовка-как теоретическая и методологическая основа профессионально-педагогического отбора военнослужащих // Профессионально-психологический отбор в Вооруженных Силах РУз. 2001. Ташкент, - С.4-19.; Абдиев А.И. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренеров и студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф.дис. ... докт.пед.наук. Т.2004. - 50 с.; Хамрокулов Р.А., Ханкельдиев Ш.Х. Оценка готовности сельской учащейся молодежи к службе в Армии // Научный журнал ТГПИ. Ташкент. 2004.- С.88-89.; Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти.-Т.: ЎзДЖТИ, 2005. - 251 с; Кочкаров А.А. Педагогическая технология ППФП курсантов высших сержантских курсантов: Автореф.дис.. канд. пед.наук.

Jismoniy tayyorgarlik muammosini o'rganishning nazariy asosi sifatida jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda uslubiyatiga oid fundamental ilmiy izlanishlar V.N.Seluyanov, V.A.Vidi, V.V.Gavrilov, V.M.Igumenova, A.A.Karelin, V.V.Nelyubinalar tomonidan olib borilgan. Sportda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar V.I.Subbotin, B.F.Kulnazarov, K.X.Safiulina, L.D.Pozdnyakova kabi mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan. Harbiy xizmatchilarni yakkakurash sport turlarida maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish va takomillashtirish muammosi (V.V.Dudulin, K.V.Klimov, V.Ye.Jabakov, N.V.Muxamedzyanova, Yu.F.Kuramshina, A.V.Kozlyakov)³ kabi olim va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan J.Friedén, R.L.Lieber R.Gracie, M. Guerrero E.Brennan, D.Kieran, J.Lang, T.Molendijk, JP.Kalkman, Y.Robinson, K. Goniewiczlar yakkakurash bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarning maxsus jismoniy sifatlarini aniqlash, aralash yakkakurashlarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish hamda harbiy xizmatchilarning amaliy mashg'ulotlari uchun MJT bo'yicha nazorat-o'tkazish me'yorlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Т., 2006. - 27 с.; Акрамов Ж.А., Абдалимов О.Х. Комплексный контроль физической подготовки курсантов учебного заведения СНБ // Сб.научных трудов конференции, посвященной 40-летию кафедры футбола и ручного мяча УзГИФК. Т.2007. - С.119-120.; Хасанов А.Т. Чақирикқача ҳарбий таълим факультети талабаларининг касбий-амалий жисмоний тайёргарлиги педагогик технологияси. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... док. Дисс. Автореферати. // Хасанов Ахаджон Турсунович. Ч, 2018. – 63 б.; Matchanov R.A. IV akademiyasi kursantlarida tezkor-kuch sifatlarini jangovor sambo maxsus mashqlari yordamida takomillashtirish.PhD dissertatsiyasi. Chirchiq, 2024. - 56 b.; Mirzakulov A. G. Krossfit vosita va usullari yordamida kursant qizlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi. Chirchiq, 2024. - 58 b.

³ Селуянов, В.Н. Работоспособность борцов при интервальной работе руками / В.Н. Селуянов В.А. Види, В.В. Гаврилов // Актуальные проблемы спортивных единоборств: теория и методика подготовки спортсменов / под общ. ред. проф. В.М. Игуменова; Рос. гос. акад. физ. культуры. – Москва, 2000. – С. 62–65.; Карелин, А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации: монография / А.А. Карелин; под ред. В.В. Нелюбина. – Новосибирск: Сов. Сибирь, 2002. – 479 с.; Субботин В.И. Технологии военно-специальной подготовки курсантов и слушателей военно-инженерных вузов [Текст] // Материалы I Всероссийской Научно-практической конференции. Пенза, 2003. - С.200.; Кульназаров Б.Ф. Физические качества, формирование боевых приемов сотрудников МВД РК. Научно-теоретический журнал // Теория и методика физической культуры. Алма-Аты, 2006. - № 2. - С. 118-123; Сафиулина К.Х., Позднякова Л.Д. ППФП студентов будущих специальностей ОАО «РЖД» // Тезисы Всероссийской научно-практической конференции. 20-22 июня 2006, Москва. - С.75-78.; Дудулин В.В. Повышение эффективности военно-профессиональной подготовки курсантов вузов РВСН в современных условиях [Текст]: монография. М., 2007. - С. 40.; Климов, К.В. Содержание и методика технико-тактической подготовки спортсменов в смешанных единоборствах: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.04 / Климов Константин Валерьевич ; С.-Петербург. гос. ун-т физ. культуры им. П.Ф. Лесгафта. – Санкт-Петербург, 2007. – 23 с.; Жабаков В.Е. Исследование представлений студентов педагогического вуза о профессиональной деятельности в сфере физической культуры // Теория и практика физической культуры. 2007.-№10.- С.23-26.; Мухамедзянова Н.В. Особенности профессионально военных качеств будущих учителей физической культуры // Теория и практика физической культуры. 2007 - № 5 - С.30-32.; Курамшина Ю.Ф. Теория и методика физической культуры : учебник для студентов высших учебных заведений, осуществляющих образовательную деятельность по направлению 521900 "Физическая культура" и специальности 022300 - "Физическая культура и спорт" / под ред. Ю.Ф. Курамшина. – [4-е изд., стер.]. – Москва : Советский спорт, 2010. – 464 с.; Козляков, А.В. Силовая подготовленность борцов вольного стиля различной квалификации / А.В. Козляков // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2010. – № 9 (67). – С. 43–47.

Yakkakurash sport turlarida maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida tik turish va parterda zarba berish va uloqtirish texnikasini umumlashtirgan holda kombinatsion texnikani bajargandan so'ng, organizmning tiklanish imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarda ushbu sifatlarni maqsadli rivojlantirish ularning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini va sport natijadorligini oshiradi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlik muammosiga bag'ishlangan ishlarni o'rganib chiqish natijasida yakkakurash sport turlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli metodika mavjud emasligini aniqlandi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasining V.11/7 "Yuqori malakali yakkakurashchilarning musobaqa faoliyati muvoffaqiyati va natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi chalg'ituvchi omillarning (tashqi va ichki) tipik turlari tarkibini tadqiq qilish hamda tizimlashtirish, shu o'rinda ekstremallik darajasiga ko'ra turli xil musobaqa vaziyatlarida yuqori malakali yakkakurashchilar texnik-taktik harakatlarining (hujumlar, ximoyalaniqlar, qarshi hujumlar, ularni tayyorlash va qo'llashning taktik tarkiblarining) son va sifat parametrlarini aniqlash" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarildi.

Tadqiqot obyekti sifatida yakkakurash bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarning mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqot predmetini yakkakurash sport turlarida harbiy xizmatchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini yakkakurash vositalari orqali takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

harbiy xizmatchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun olti haftalik mezosikl mashg'ulotlarini qo'llash;

harbiy xizmatchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun uch blokli ixtisoslashtirilgan jismoniy tayyorgarlik bolklarini mashg'ulotlar jarayonida qo'llash;

harbiy xizmatchilarni musobaqalarda tayyorlash uchun funksional va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

yakka kurash sport turlarida yuqori sport natijalariga erishish uchun kuch tizimiga tegishli musobaqalarda yuqori sport natijalariga erishish.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot usullari majmuidan foydalanildi: maxsus jismoniy tayyorgarlik muammosining o'rganilganlik holatini aks ettiruvchi monografiyalar, dissertatsiya tadqiqotlari, maqolalar va boshqa ilmiy nashrlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish. Tadqiqotning empirik usullari sifatida sportchilar bilan ishlashdagi shaxsiy murabbiylik tajribasi, yakkakurashning turli turlari bo'yicha

faoliyat yuritayotgan murabbiylar tajribasini kuzatish va so'rovnoma orqali o'rganish, testlar o'tkazish, pedagogik tajriba o'tkazish, olingan ma'lumotlarni matematik statistika usullari yordamida qayta ishlash va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

harbiy xizmatchilarning tezlik, kuch hamda maxsus chidamlilikni oshirishga qaratilgan maksimal tana vaznining 70 foizi moslashgan yelka kamari, orqa va oyoq mushaklar rivojlantiruvchi vositalarni olti haftalik mezosikl mashg'ulotlarida qo'llash hisobiga jismoniy sifatlar oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

harbiy xizmatchilarning musobaqa natijalarini oshirish maqsadida uch blokli ixtisoslashtirilgan mashqlarni takroriy, o'zgaruvchan, oraliq, nazorat usullari intinsivligini bo'yicha bloklarga ratsion taqsimlagan holda qo'llash hisobiga musobaqa faoliyatida jismoniy imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlari oshirilgan;

yakkurash bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun funksional va jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun kuch mashqlari haftada uch kun, yuqori energiya imkoniyatini oshiruvchi mashg'ulotlar haftada besh kunlik modelini muvoffiqlikda qo'llash hisobiga texnik harakatlarni turli shiddat zonalarida bajarish samaradorligi oshirilgan;

harbiy xizmatchilarning jismoniy holatini barqaror saqlash maqsadida energiya zaxirasini tejashga qaratilgan qo'l janggi, belbog'li kurash, armvrestling vositalarini jismoniy tayyorgarligini oshirish dasturiga singdirish hisobiga jismoniy tayyorgarligini barqaror saqlash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

harbiy-xizmatchilarning musobaqa faoliyati samaradorligini oldindan belgilab beruvchi maxsus jismoniy sifatlari, oyoq mushaklarining tezkor chidamliligi, oyoq va bel mushaklarining "portlovchi kuchi", oyoqlarning zarba harakatlari va uloqtirishlarda namoyon bo'lishi, yelka kamari mushaklarining kuch chidamliligi, maksimal sur'atda qo'llar bilan zarbalarni bajarish (harakatlarning tezligi), tashlashlar va ushlashlarda, tik turish va parterda kurash olib boorish, zarbalar va seriyani bajarishda koordinatsion qobiliyatlar, kombinatsion hujum harakatlari seriyasini bajargandan so'ng YuQS va tiklanish vaqtlari berilgan maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

yakkakurashlarda maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishda zarur hajmdagi jismoniy yuklamalarni bajarishni ta'minlash uchun yuqori shiddatli, vazn og'irligi maksimal zonada 70% bo'lgan, yondashuvda takrorlanishlar soni kam (3 tadan 5 tagacha), lekin yondashuvlar soni (10-15 tagacha) va yondashuvlar orasidagi dam olish oralig'i (1 daqiqa) bo'lgan mashqlardan foydalanish orqali harbiy-hizmatchilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari yaxshilangan;

harbiy-xizmatchilar mashg'ulotida glikolitik yo'nalishdagi yuklamani istisno qilish uchun majburiy vazifa hisoblanadi. Ishning bunday shaklida harbiy-xizmatchi kamroq darajada charchaydi, bu esa unga katta hajmdagi ishni bajarishga imkon yaratishi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlardan olingan natijalarning ishonchliligi nazariy va uslubiy baza, ilmiy tadqiqotning ketma-ketligi, jismoniy

tarbiya va sport mashg'ulotlar nazariyasi uslubiyati sohasidagi vatanimiz va chet el olimlari, shuningdek, amaliyotchi murabbiylarning fikrlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi va o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil qilish usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi harbiy-xizmatchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini tezroq va natijador oshirish hamda o'quv-mashg'ulot jarayoni samaradorligini takomillashtirish, harbiy-xizmatchilarni kasbiy-amaliy tayyorgarligini takomillashtirish muommolariga taaluqli jismoniy tarbiya va sport nazariyasi uslubiyati fani mazmunini boyitishi hamda kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yakkakurash sport turlarida muvaffaqiyatli sport faoliyati uchun zarur bo'lgan maxsus jismoniy sifatlarni baholash maqsadida maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mavjud me'yorlar majmuini yangi testlar va me'yorlar bilan to'ldirish harbiy-xizmatchilarni kasbiy faoliyati davomida davriy va uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini yakkakurash vositalari orqali takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar asosida:

harbiy xizmatchilarning tezlik, kuch hamda maxsus chidamlilikni oshirishga qaratilgan maksimal tana vaznining 70 foizi moslashgan yelka kamari, orqa va oyoq mushaklar rivojlantiruvchi vositalarni olti haftalik mezosikl mashg'ulotlarini qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Sirdaryo viloyati Shirin shahar Mudofaa vazirligiga qarashli 49479 sonli harbiy qismning harbiy xizmatchilarning o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq qilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 10/797-son ma'lumotnomasi). Natijada, turnikka tortilish nazorat testi sinaluvchilari tadqiqot oldi o'rtacha 18,4 martadan 22,8 martaga yaxshilangan;

harbiy xizmatchilarning musobaqa natijalarini oshirish maqsadida uch blokli ixtisoslashtirilgan mashqlarni takroriy, o'zgaruvchan, oraliq, nazorat usullari intinsivligini bo'yicha bloklarga ratsion taqsimlash bo'yicha taklif va tavsiyalar Farg'ona viloyati Qo'qon shahar Mudofaa vazirligiga qarashli 42090 sonli harbiy qismning harbiy xizmatchilarning o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq qilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 10/797-son ma'lumotnomasi). Natijada, tajriba guruhi sportchilari esa 6 ta musobaqada ishtirok etib, 156 ta jang o'tkazib, 128 ta g'alabaga erishdi va 33 ta sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan;

yakkakurash bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun funksional va jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun kuch mashqlari haftada uch kun, yuqori energiya imkoniyatini oshiruvchi mashg'ulotlar haftada besh kunlik modelini muvoffiqlikda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Mudofaa vazirligiga qarashli 39501 sonli

harbiy qismning harbiy xizmatchilarning o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq qilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 10/797-son ma'lumotnomasi). Natijada, 10 marta beldan oshirib tashlash nazorat testida tajriba guruhi harbiylari tadqiqot boshida 27,2 soniya vaqtda bajarigan bo'lsa, tadqiqot yakunida esa 24,1 soniya vaqtda bajarishga erishilgan;

harbiy xizmatchilarning jismoniy holatini barqaror saqlash maqsadida energiya zaxirasini tejashga qaratilgan qo'l janggi, belbog'li kurash, armvrestling vositalarini jismoniy tayyorgarligini oshirish dasturiga singdirish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya institutning kursantlarining o'quv-mashg'ulotlariga tatbiq qilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 10/797-son ma'lumotnomasi). Natijada, 3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlashda tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot oldi o'rtcha 31,5 marta amalga oshirgan bo'lsa, tadqiqot so'ngida 42,2 marta bajarishga erilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy jurnallarida 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta horijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, 122 sahifali matn, 5 ta rasm, 22 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning ilmiy-amaliy zaruriyati, tadqiqotning O'zbekistonda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsion tadqiqotning ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida amalga oshirilganligi, maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, uslublari, natijalarning ob'ektivligi, tadqiqot natijalarining amalga joriy etilishi, nashr qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlik muammolari bo'yicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobda harbiylarda jismoniy tayyorgarlik jarayonini rejalashtirishning zamonaviy muammolari, yakkakurash turlari bilan shug'ullanuvchi harbiylarda jismoniy tayyorgarlik vositalari nisbati muammosi, yakkakurashlarda maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish vositalari va usullarini ahamiyati belgilab berilgan.

Yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarda, jismoniy tayyorgarlik sportchining ixtisoslashuvi bilan chambarchas bog'liq. Yakkakurashning bir turida sport natijasi, birinchi navbatda, tezlik-kuch imkoniyatlari, anaerob ish unumdorligining rivojlanish darajasi bilan, boshqalarida

- aerob ish unumdorligi, uzoq vaqt ishlashga chidamlilik bilan, uchinchilarida - tezlik-kuch va koordinatsion qobiliyatlar bilan, to'rtinchilarida - turli jismoniy sifatlarning bir maromda rivojlanishi bilan belgilanadi.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish masalasini tahlil qilar ekan, so'nggi vaqtlarda sport sohasidagi mutaxassislarning e'tibori sportchi organizmining funksional tizimlariga yuqori talablar qo'yadigan eng samarali jismoniy tayyorgarlik vositalari va usullarini o'rganish va tanlashga qaratilganligini ko'rsatadi, ularning imkoniyatlari musobaqa faoliyatining muvaffaqiyatini belgilaydi. Sportchining tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish uning qobiliyatiga muvofiq amalga oshiriladigan va uning tayyorgarligining barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, mashg'ulot va musobaqa yuklamasining vositalari, usullari va darajalarini tanlashni belgilaydigan chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi (S.M.Ashkinazi).

Har tomonlama jismoniy tayyorgarlik ba'zan kam baholanadi, jismoniy tayyorgarlik uchun ko'pincha ushbu sport turining tor doiradagi jismoniy mashqlaridan foydalaniladi. Uning fikricha, jismoniy tayyorgarlikning bunday bir tomonlama yo'naltirilishi yuqori sport natijalariga erishishga yordam bermaydi, ayrim hollarda esa sportchining sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkinligi o'rganilgan adabiyotlar tahlilida aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar davomida qo'llanilgan ilmiy tadqiqot usullari, jumladan, maxsus ilmiy va uslubiy adabiyotlar materiallarini nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, o'quv-mashg'ulot jarayonini pedagogik nazorat qilish, pedagogik test o'tkazish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik statistika tahlil qilish yordamida qayta ishlash usullari bayon etilgan.

Pedagogik tajriba-sinov belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq amalga oshirilib, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili va pedagogik tajribani o'z ichiga olgan besh bosqichdan iborat bo'ldi.

Birinchi bosqichda (2021-2022-yillar) ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili o'tkazildi, muammoning holati o'rganildi, yakkakurashning turli turlari bo'yicha murabbiy-o'qituvchilarning fikrlari umumlashtirildi. Ilmiy ishning umumiy yo'nalishi, tashkil etish shartlari belgilandi. Tadqiqotning maqsadi, asosiy vazifalari va ishchi gipotezasi shakllantirildi. Yakkakurash bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarning maxsus jismoniy sifatlari rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun ilmiy tadqiqot va test usullari tanlandi.

Ikkinchi bosqichda (2022-2023-yillar) yakkakurash bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligining omilli tuzilishi haqida ma'lumot olish uchun biz nazorat-pedagogik testlashni o'tkazdik. Unda 30 nafardan tajriba va nazorat guruhida harbiy xizmatchilar ishtirok etdi, ular turli xil musobaqalar ishtirokchilari, turli yosh guruhlarida harbiylar o'rtasidagi o'tkaziladigan musobaqalar birinchiligi g'olib va sovrindorlari edi. Test sinovlari “MHSK” harbiy-vatanparvarlik markazi, Toshkent shahar harbiy xizmatchilarda o'tkazildi.

Uchinchi bosqichda (2023-yil oktyabr-noyabr) yakkakurash turlari bilan shugʻullanuvchi harbiy xizmatchilarning maxsus jismoniy sifatlarini aniqlash uchun biz nazorat-pedagogik sinovdan oʻtkazdik. Qoʻl jangi, belbogʻli kurash turlari boʻyicha 60 nafar. Sportchilar trener-oʻqituvchilar tomonidan berilgan ekspert bahosi asosida hisoblangan reytingga muvofiq ikki guruhga ajratildi.

Keyinchalik test natijalari egzel dasturi yordamida matematik-statistik ishlovdan oʻtkazildi.

Toʻrtinchi bosqichda (2024-yil mart-aprel) biz yakkakurash bilan shugʻullanuvchi harbiy xizmatchilarning yetakchi jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslubiyotini yuqori shiddatli vositalardan foydalangan holda sinovdan oʻtkazdik. Bu vositalar interval rejimida musobaqa sharoitida harakat apparati ishiga maksimal darajada yaqinlashtirildi. Tajriba boshlanishidan oldin nazorat va tajriba guruhi sportchilari umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun sinovdan oʻtkazildi. Olti hafta oʻtgach, ikkala guruh sportchilari yakuniy test sinovidan oʻtdi. Olingan natijalar SPSS dasturidan foydalangan holda statistik tahlil usullari bilan qayta ishlandi.

Beshinchi bosqichda (2023-2024-yillar) biz tomonimizdan yarim yillik sikl doirasida yakkakurash turlari harbiy xizmatchilarining maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish metodikasi sinovdan oʻtkazildi. Tajriba-sinov ishlarini oʻtkazish uchun qoʻl jang, belboʻgli kurash va armvrestling sport turlari bilan shugʻullanuvchi harbiy xizmatchilarda olib borildi. Yakkakurash bilan shugʻullanuvchi sportchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish bosqichi haftalik sikllarga boʻlindi, ular orasida kurashchilarga ikki hafta davomida dam olish taklif etildi. Birinchi sikl boshlanishidan oldin nazorat va tajriba guruhi sportchilari jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun sinovdan oʻtkazildi. Soʻngra tadqiqot oldi va yakunida ikki guruh sportchilarida oraliq test sinovlari oʻtkazildi. Keyinchalik olingan maʼlumotlar statistik tahlil usullaridan foydalangan holda qayta ishlandi.

Yakkakurashlar bilan shugʻullanadigan maxsus jismoniy tayyorgarlikning tuzilish faktori toʻgʻrisida maʼlumot olish uchun biz 30 kishidan iborat sportchilar guruhini sinovdan oʻtkazdik.

Dissertatsiyaning **“Yakkakurash bilan shugʻullanuvchi harbiy xizmatchilarning yetakchi jismoniy sifatlarini aniqlash va ularni maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonida takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida oʻtkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati, yakkakurash sport turlari bilan shugʻullanuvchi harbiy xizmatchilar uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik boʻyicha nazorat oʻtkazish meʼyorlar dasturini takomillashtirish oshirishga qaratilgan maʼlumotlar berilgan.

Mashqlarning asosiy toʻplami sifatida harbiy xizmatchilar uchun universal jang uchun sport mashgʻulotlari markazlari (Markaziy harbiy sport klubi) uchun oʻquv dasturining nazorat-sinov meʼyorlaridan foydalandik.

Tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki test natijalari qabul qilindi. Styudentning t-mezeni boʻyicha qiyosiy tahlil natijalariga koʻra jismoniy


tayyorgarlikning umumiy tomonini tavsiflovchi mashqlarda NG va TG o'rtasida sezilarli farqlar yo'qli kuzatildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Tadqiqotdan oldin nazorat va tajriba guruhi harbiy xizmatchilari jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili, n=60

T/r	Mashq nomi	Guruhlar		t	P
		NG	TG		
1	Yotgan holatda qo'llarni bukib yozish, (marta)	29,0±0,1	29,3±0,3	0,94	>0,05
2	Turnikda tortilish, (marta)	17,4±0,5	18,4±1	0,97	>0,05
3	Turnikda osilib turgan holatdan oyoqlarni ko'tarish, (marta)	18,5±0,7	18,8±0,3	0,39	>0,05
4	Turgan joydan uzunlikka sakrash, (sm)	255,2±0,6	256, 1±0,7	0,54	>0,05
5	Yelkalardan oshirib 10 marta tashlash, (s)	30,9 ±2,9	28,1±2,1	1,20	>0,05
6	10 marta beldan oshirib tashlash, (s)	28,7±1,7	27,2±1,5	1,01	>0,05
7	3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlash, (soni)	31,6±1,4	31,5±1,30	1,24	>0,05

Tajriba va nazorat guruhlarini jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalar berilgan bo'lib, unga ko'ra, yotgan holatda qo'llarni bukib yozishda nazorat guruhida o'rtacha 29,0 marta, tajriba guruhida esa 29,3 marta kuzatildi. Turnikka tortilish testida esa nazorat guruhida 17,4 martani, tajriba guruhida esa 18,5 marta aniqlandi.



1-rasm. Tadqiqotdan oldin nazorat va tajriba guruhi harbiy xizmatchilari jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili, n=60

Turnikda osilib turgan holatdan oyoqlarni ko'tarishda nazorat guruhida o'rtacha 18,5 marta, tajriba guruhida esa o'rtacha ko'rsatkich 18,8 marta qayd etildi. Turgan joyida uzunlikka sakrashda nazorat guruhida o'rtacha 255,2 sm, nazorat guruhida esa 256.1 sm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Raqibni yelkalardan oshirib 10 marta tashlash testida nazorat guruhi o'rtacha 30,9 soniya sarf qilgan bo'lsa, tajriba guruhida esa 28,1 soniya natija qayd etildi. 10 marta beldan oshirib tashlash nazorat testida o'rtacha nazorat guruhi sinaluvchilari 28,7 soniya va tajriba guruhi o'rtacha 27,2 soniya vaqtda bajarishdi. 3 daqiqa davomida o'zgaruvchan sur'atda manekenni tashlashda nazorat guruhi o'rtacha 31,6 marta,

nazorat guruhi esa 31,5 marta bajarganligi o'rtazilgan dastlabki tadqiqotlar davomida aniqlandi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, vazni 70% bo'lgan og'irlikdagi mashqlarni bajargandan so'ng YUQS tiklanish tezligini tavsiflovchi testlarda NG va TG o'rtasidagi farqlar ishonchli emas. Bu NG va TG sportchilarining funksional tayyorgarligini tavsiflaydi.

2-jadval

Tajribadan oldin NG va TGda YUQS tiklanish tezligi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili, n=60

Mashq nomi	Guruhlar		t	P
	NG	TG		
Maksimal og'irlikning 70% i shtanga bilan o'tirish mashqni bajargandan so'ng YUQS, zar/daq.	151,1±0,3	151,4±0,3	0,70	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i shtanga bilan o'tirish mashqni bajarganda 1 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	136±0,8	135,1±0,7	0,84	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i shtanga bilan o'tirish mashqni bajarganda 2 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	120,8±1,6	119,7±0,9	0,59	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i shtanga bilan o'tirish mashqni bajarganda 3 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	100,2±0,3	100,4±0,4	0,40	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i shtangani belgacha tortish mashqni bajarganda YUQS, zar/daq.	151,4±0,2	151,6±0,2	0,70	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i shtangani belgacha tortish mashqni bajarganda 1 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	135,9±0,8	136,7±0,6	0,80	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i shtangani belgacha tortish mashqni bajarganda 2 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	118,8±1,4	120,6±0,9	1,08	>0,3
Maksimal og'irlikning 70% i shtangani belgacha tortish mashqni bajarganda 3 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	100,3±0,3	99,9±0,3	0,94	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i bilan shtangani siltab ko'tarish mashqni bajarganda so'ng YUQS, zar/daq.	132,6±0,5	133±0,5	0,56	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i bilan shtangani siltab ko'tarish mashqni bajarganda so'ng 1 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	117,4±0,9	118,9±0,3	1,58	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i bilan shtangani siltab ko'tarish mashqni bajarganda so'ng 2 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	102,1±0,9	102,9±0,3	0,84	>0,05
Maksimal og'irlikning 70% i bilan shtangani siltab ko'tarish mashqni bajarganda so'ng 3 daqiqadan so'ng YUQS, zar/daq.	91,4±1	91,3±0,6	0,42	>0,05

Shuni ta'kidlash kerakki, bizning tajribamizda sportchilarning kuch qobiliyatlarini tavsiflash bitta mashq bilan cheklanmaydi, biz yakkakurashchilarning maxsus jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini tavsiflovchi maxsus mashqlar majmuasini ko'rib chiqamiz. Biz taqdim etgan

mashqlar jismoniy sifatlar majmuasini tavsiflaydi, bu yerda ularning namoyon bo‘lishi turli mushak guruhlarining muvofiqlashtirilgan harakatiga bog‘liq. Masalan, shtangani belgacha tortish mashqini bajarishda oyoq muskullari faol ishtirok etadi, shtanga bilan o‘tirib-turish mashqini bajarishda esa bel muskullari katta ish bajaradi. Styudentning t-mezoni bo‘yicha NG va TG dastlabki testlarining qiyosiy tahlili natijalari har ikki guruh tajriba boshlanishiga bir xil jismoniy shaklda kelgan degan xulosaga kelish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, shtanga bilan bilan maxsus mashqlarni bajargandan so‘ng tiklanish tezligini tavsiflovchi testlarda yaqqol ko‘rinadi.

Mashg‘ulotning asosiy usuli aylanma mashg‘ulot edi. Mashqni bajarish vaqti 30 soniya, asosiy mashqlar uchun og‘irlik shartli maksimalning 70 foizi va izolyatsiyalangan mashqlar uchun maksimalning 30-40 foizi, mashqlar orasidagi dam olish 30 soniya, aylanmalar orasidagi dam olish 2-3 daqiqa, aylanmalar soni 4-5 ta. Aylanma usulda o‘tkaziladigan mashg‘ulotga misol 12-jadvalda keltirilgan.

Tajriba guruhida ham asosiy mashg‘ulot usuli aylanma edi. Og‘irlik - shartli maksimumning 70 foizi, takrorlashlar soni 3 dan 5 gacha, aylanmalar soni - 15, aylanmalar orasidagi dam olish vaqti - 1 daqiqani tashkil etdi. Quyidagi jadvalda harbiy xizmatchilarning maxsus sifatlarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan aylanma mashg‘ulot tavsifi haqida ma‘lumot berilgan.

3-jadval

Harbiy xizmatchilarning maxsus sifatlarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan aylanma mashg‘uloti

T/r	Mashqlar nomi	Vazifasi
1	Yelkada shtanga bilan o‘tirib-turish	Oyoq mushaklarining kuch chidamliligini rivojlantirish uchun mashq
2	Turnikda tortilish	Yelka kamari mushaklarining kuch chidamkorligini rivojlantirish uchun mashq
3	Shtangani yerdan ko‘tarish	Orqaning uzun mushaklarini rivojlantirish uchun mashq
4	Parallel bruslarda qo‘llarni bukib-yozish	Yelka kamari mushaklarining kuch chidamkorligini rivojlantirish uchun mashq
5	Cho‘qqaygan holatdan sakrab turish	Oyoq mushaklarining kuch chidamliligini rivojlantirish uchun mashq
6	Shtanga bilan qo‘llarni bukib-yozish	Qo‘l mushaklarining kuch chidamliligini rivojlantirish uchun mashq
7	Yotgan holatdan gavdani ko‘tarish	Qorin pressi mushaklarini rivojlantirish uchun mashq
8	Shtangani ko‘krakdan bosh uzra itarib ko‘tarish	Yelka kamari mushaklarini rivojlantirish uchun mashq

TG harbiy xizmatchilari uchun biz yuqori intensiv vositalardan foydalanishni taklif qildik, ularning vazifasi sportchining yuqori konsentratsiyali portlovchi kuchlarni namoyish etish uchun safarbar qilish qobiliyatini takomillashtirish va tananing funksional imkoniyatlarini yangi ish stresslariga olib tashlashdir. TG

harbiy xizmatchilari uchun biz yuqori shiddatli vositalardan foydalanishni taklif etdik. Ularning vazifasi sportchining yuqori konsentratsiyalangan portlovchi kuchlarni namoyon qilish uchun safarbarlik qobiliyatini takomillashtirish va organizmning funksional imkoniyatlarini ish kuchlanishining yangi darajasiga olib chiqishdan iborat. Bir xil mushaklar guruhi uchun 10-15 soniyadan oshmaydigan qisqa intensiv ish va 45-60 soniyalik dam olish oralig'i glikolizni biroz faollashtiradi, bu esa mushaklarning aerob quvvatini oshirish uchun sharoit yaratadi.

Tayyorgarlikning 1, 3 va 5 haftalarida TG sportchilari rivojlantiruvchi xarakterdagi asosiy mashg'ulot ishlarini bajardilar. Haftalik mikrotsikl doirasida maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulot ishlari ikki mashg'ulot kuniga ajratildi (4-jadvalga qarang). Mashqlar shunday guruhlashtirilganki, bunda mashg'ulot ishlariga antagonist mushaklar jalb qilingan.

4-jadval

Trenirovka yuklamasining 1, 3 va 5-haftalarda taqsimlanishi

Mashg'ulot kuni № 1	Mashg'ulot kuni № 2	Og'irlik darajasi	Takrorlanishlar soni (marta)
Shtanganing ko'krakka ko'tarilishi	Qomatni tortish	Maksimal og'irlikning 70 %	3-5
Shtanga bilan o'tirib-turish	Shtanganing tirkakdan silkinishi		
Qo'shpoyada qo'llarni bukish va yozish	O'rindiqlik holatidan sakrash	Belgilanmagan	5

Mashg'ulotning asosiy usuli aylanma mashg'ulot edi. Og'irlik og'irligi - UMax ning 70%, takrorlashlar soni 3 dan 5 gacha, davralar soni - 15, davralar orasidagi dam olish oralig'i - 1 daqiqa.

Tayyorgarlikning 2, 4 va 6 haftalarida tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulot yuklamasi tetiklashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, ikkita asosiy mashq bilan cheklangan (5-jadvalga qarang).

5-jadval

2, 4 va 6-haftalarda mashg'ulot yuklamasining taqsimlanishi

1-mashq kuni	2-mashq kuni	Og'irlik vazni	Seriyalar soni	Takrorlanishlar soni	Seriyalar orasidagi dam olish vaqti (daqiqa)
Shtanga bilan o'tirib-turish	Turnikda tortilish	Maksimal og'irlikning 70 % i	5	5	2-3

Tajriba guruhida mashg'ulot jarayonini tashkil etish mashg'ulot ishlarini ham haftada ikki marta o'tkazishni nazarda tutdi, lekin har bir haftadagi yuklamalarning yo'nalishi turlicha bo'ldi.

Biz tomonimizdan maxsus jismoniy tayyorgarlik jarayonini blokli tizim ko'rinishida ishlab chiqildi.


A blokda ixtisoslashtirilgan jismoniy tayyorgarlik vositalari, masalan, og‘irliklar bilan mashqlar, shu jumladan shtanga bilan sakrash mashqlari, turli xil trenajyor moslamalari, u yoki bu ish rejimida (masalan, mushaklarning portlovchi kuchi, asab-mushak apparatining reaktiv qobiliyati, mahalliy mushaklar quvvati, maksimal anaerob chidamliligi) mushaklar kuchini va uning turli ko‘rinishlarini rivojlantirish maqsadida dozalangan qarshiliklar beradi.

B blokda - organizmning energetik salohiyati quvvatini (sig‘imini) rivojlantirish maqsadida musobaqa mashqini yoki ish rejimiga mos yordamchi mashqlarni bajarishning turli intensivlikdagi (takroriy, o‘zgaruvchan, oraliq, seriyali, nazorat va boshqalar) usullari.

C blokda - musobaqalarda ishtirok etish, shuningdek, mashg‘ulotlarda musobaqa sharoitlarini modellashtirish. Masalan, taktik variantlar, urinishlar orasidagi dam olish oraliqlari, urinishlar soni va musobaqa dasturlarini, shu jumladan saralash va final yugurishlarini modellashtirishdan iborat.

Aynan unda masofaviy mashg‘ulot ishlari jadallashadi va organizmning shoshilinch moslashuvdan uzoq muddatli moslashuvga o‘tishi boshlanadi. Shuning uchun B-blokni «musobaqa oldi bosqichi» deb ataladigan bosqich bilan aynanlashtirish yaramaydi, chunki bu bosqich blokli sistemaning bosh strategiyasida alohida ahamiyatga ega emas.

Bunda mushak ishining energiya bilan ta‘minlanishi jarayonini piramida qurish yoki piramida pog‘onalaridan ko‘tarilish tarzida tasavvur qilish qulay (3-rasmga qarang).




3-rasm. Energetik mashqlar piramidasi

Mushak ishini energiya bilan ta‘minlash jarayonini mashq qilish piramidasi aerob poydevorga quriladi. Bu piramidaning zinalari moslashuv o‘zgarishlari ketma-ketligi tamoyiliga muvofiq barpo etiladi va aerob poydevor yaratilgandan so‘ng anaerob laktat hamda anaerob alaktat mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. Natijada shug‘ullanayotgan sportchining yuqori energetik salohiyatiga erishiladi.

Bu holda piramida obrazi mashg‘ulot jarayonining nafaqat mazmunini, balki urg‘ular ketma-ketligini ham aniq tasavvur qilishga yordam beradi. Albatta, bu shunchaki modeldan boshqa narsa emas, model esa faqat voqelikning eng muhim jihatlarini aks ettirishi lozim. Ammo aynan mashg‘ulot jarayonini model (piramida) ko‘rinishida tasavvur qilish uning yaxlit manzarasini shakllantirishga

imkon beradi. Fiziologiyada ma'lum bo'lgan mashg'ulot ta'sirlarining qaytariluvchanligi hodisasini hisobga olgan holda, piramidaning har bir keyingi bosqichiga o'tish ushbu bosqichda erishilgan moslashuv o'zgarishlarini saqlab qolish uchun mashg'ulotda oldingi bosqichning ma'lum hajmdagi vositalaridan foydalanishni davom ettirishni talab etadi.

Shunday tamoyil kuch mashg'ulotini tuzish uslubiyatida ham o'z aksini topadi. Bu holda moslashuv o'zgarishlarining ketma-ketlik tamoyili kuch chidamliligiga asoslanadi, shundan so'ng maksimal kuch va portlovchi kuchni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Kuch mashqlari piramidasi

Agar sportchi ushbu piramidaning biror bosqichini o'tkazib yuborsa, natija kamroq muvaffaqiyatli bo'ladi va jarohatlarga olib kelishi mumkin. biz taklif etyotgan mashg'ulot piramidasi o'zi mashg'ulot jarayonining vaqt bo'yicha bosqichma-bosqich rivojlanishini tasavvur qilishga yordam beradi. Mashg'ulot piramidasi dastlabki ikki bosqichida kuch mashqlari, odatda, haftada uch kun, kun ora o'tkaziladi. Energetik mashg'ulotlar esa haftada besh yoki olti kunni talab qiladi. Shubhasiz, ba'zi kunlarda har ikkala mashg'ulotni birlashtirishga to'g'ri keladi. Masalan, energetik mashg'ulotlarni dushanbadan shanbagacha ertalab, kuch mashqlarini esa dushanba, chorshanba va juma kunlari kechqurun o'tkazish mumkin. Sportchilar kuniga ikki martalik mashg'ulotlarga juda tez moslashadi, ularning turli yo'nalishlari esa mashg'ulot jarayonining bir xilligiga qarshi kurashishga yordam beradi.

Musobaqa davriga yaqinlashganda har ikkala mashg'ulot turi ham cheklanadi (tayyorgarlik davrining oxirida faol dam olish). Sportchilar energetik mashg'ulotlar hajmini kamaytiradi va kuch mashg'ulotlarini, ayniqsa muhim musobaqalar oldidan, haftasiga bir yoki ikki martagacha cheklaydi. Yuklamalarning bunday pasayishi og'ir mashg'ulotlardan keyin tiklanishga yordam beradi, energiya zaxiralarini optimallashtirishga imkon beradi va kichik

jarohlarni davolash uchun vaqt beradi. Shu bilan birga, musobaqalarning birinchi kunidan 8-10 kun oldin xususiyati, hajmi va shiddati bo'yicha musobaqalardan yuqori bo'lgan yuklamalar zarur, degan fikr mavjud. Musobaqa yuklamalariga mos keladigan yoki ulardan ustun bo'lgan yuklamalardan foydalanmasdan turib, kurashchilarning tayyorgarlik darajasini ko'tarish mumkin emas, chunki ularsiz sportchilarni sifat jihatdan yangi tayyorgarlik darajasiga olib chiqib bo'lmaydi.

Tadqiqotimiz davomida harbiy xizmatchilarni yakkakurash sport turlarida yuqori natijalarga erishish uchun energiya imkoniyatlari va kuch mashg'ulotlarini muvofiqlikda rejalashtirishga e'tibor qaratdik.



5-rasm. Yakkakurash sport turlari bilan shugullanuvchi harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish modeli

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarning umumiy og'irlik 70 % dan oshmagan organizmni energiya ta'minoti, ixtisoslashtirilgan jismoniy tarbiya hamda mashg'ulotlarda musobaqa faoliyatini modellashtirishga qaratilgan bloklarni olti haftalik mezosikllarga singdirilgan. Shu bilan birga harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun kuch va uning turlarini rivojlantirishga e'tibor

qarailgan. Ushbu modeldan foydalanish orqali yakkurash sport musobaqalarida yuqori natijaga erishish imkoniyati oshgan.

Haftalik mashg'ulotlar rejasi, asosan mashg'ulot o'tkaziladigan kunda uning mazmuni va xususiyati to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Haftaning birinchi kunida UJT ko'rsatilgan. Ammo uning mazmunida qanday vazifalar bajarilishi kerakligi nazarda tutilmagan, mashqlar tarkibi yoki boshqa tarkibiy asoslar ko'rsatilmagan. Mazkur tushinchalar mashg'ulotlarni kunlik rejalashtirishda kiritilishi nazarda tutiladi.

6-jadval

Yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanuvchi harbiy xizmatchilarni haftalik sikllari

Yosh guruhlari	Hafta kunlari						
	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba
Tayyorgarlik davri							
Qo'l jangi	UJT		TTT		MJT		Hammom
Belbog'li kurash	UJT	TTT		MJT	TTT		Hammom
Aremvrestling	UJT	TTT	UJT	MJ+TTT	UJT		Hammom
Musobaqa davri							
Qo'l jangi		TTT		UJT		MJ+TTT	Hammom
